



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 11 237,4 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 10 831,2 mlrd. so'mni (104,5 %), o'rmon xo'jaligi – 274,4 mlrd. so'mni (102,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 131,8 mlrd. so'mni (114,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2022- yilning yanvar- sentabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,4 % i –dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,4 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi (mlrd.so'm)



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 288,6 mlrd. so'm), Qiziltepa (2 232,7 mlrd. so'm) va Navbahor (1 814,7 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon (49,2 mlrd. so'm), G'ozg'on shahar (49,9 mlrd. so'm) larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Zarafshon shahar (136,7 %), Navoiy shahar (115,7 %), Tomdi tumani (108,9 %), aksincha Qiziltepa tumani (103,7 %) Nurota tumani (103,3 %), G'ozg'on shahar esa (86,8 %) past sur'atlari kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati, (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 10 781,0 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 3 651,4 mlrd. so'mni (107,4 %), chorvachilik mahsulotlari 7 129,6 mlrd. so'mni (103,1%) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumi hajmining 74,4 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 21,3 % i – fermer xo‘jaliklariga, 4,3 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (32,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahrida (94,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (24,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3 651,4 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 33,9 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming tonna.



Oʼsish surʼati



Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



Fermer xoʻjaliklari


Dehqon (shaxsiy vordamchi) xoʻjaliklari

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalda oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 224,3 ming tonna don (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 4,4 % ga koʻp) yetishtirildi. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 85,9 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʼri kelishini koʻrsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.




O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 74,8 ming tonna kartoshka (2021-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 7,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 86,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 214,4 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiylajmidan 78,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz ekinlari


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 60,1 ming tonna poliz ekinlari (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 60,0% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
poliz ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 84,1 ming tonna meva va rezavorlar (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiylajmidan 59,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
meva va rezavorlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 74,4 ming tonna uzum (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 12,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiylajmidan 50,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna



Chorvachilik

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 7 129,6 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 134,8 ming tonna goʼsht (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,6 % ga koʼp), 368,7 ming tonna sut (2,1 % ga


ko‘p), 309,1 mln. dona tuxum (8,4 % ga ko‘p) yetishtirildi va 8 335,0 tonna baliq (12,3 % ga ko‘p) ovlandi.

Go‘sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna.



O’sish sur’ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 134,8 ming tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiylajmidan 89,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.




**Navoiy viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 368,7 ming tonna sut (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 2,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 92,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 309,1 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 8,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 70,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Navoiy viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish
hajmi, ming dona**




Baliq ovlash


Hajmi, tonna.




O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8335,0 tonna (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 12,3 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalariboyicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiylajmidan 77,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Navoiy viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 27,0 % i fermer xo'jaliklariga, 59,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 13,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 12,6 % i fermer xo'jaliklariga, 61,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soni 508,3 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 12,1 ming taga (2,4 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 207,0 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni (98,7 %) ni tashkil etdi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumi bosh soni,
ming bosh




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 416,9 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 88,9 ming taga (3,8 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 59,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 21 980 taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 782 taga (3,7 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 55,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh




2022-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 387,0 ming taga yetdi. 2021-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 223,6 ming taga (7,1 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 61,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Navoiy viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh

